

**GAROVGA QO'YILAYOTGAN KO'CHMAS MULK VA/YOKI USKUNANI
SUG'URTALASH BO'YICHA BOSH SUG'URTA SHARTNOMASI**

№ 01/02/13RB/020

Toshkent sh.

“15” 07 2025 yil

O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi huzuridagi Sug'urta bozorini rivojlantirish agentligi tomonidan 2022-yil “25”-fevraldagi SF 00037-sonli litsenziyasi asosida faoliyat yurituvchi **“MY-INSURANCE” Sug'urta Kompaniyasi AJ** (keyingi o'rinlarda – **Sug'urtalovchi**) nomidan Ustav (Ishonchnoma) asosida harakat qiluvchi Bosh direktor **A.K.Yuldashev** bir tomondan hamda bundan keyingi matnlarda **“Sug'urta qildiruvchi/Naf oluvchi”** deb yuritiluvchi **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB** nomidan 2024-yil 24-apreldagi 80-09/16-sonli Ishonchnoma asosida harakat qiluvchi bank Boshqaruv raisi o'rinbosari v.b. **O.R.Voxidov** ikkinchi tomondan, birgalikda **“Tomonlar”** va alohida **“Tomon”** deb yuritiluvchilar, mazkur kreditning qaytnaslik xatarini sug'urtalash bo'yicha Bosh sug'urta shartnomasi (keyingi o'rinlarda – sug'urta shartnomasi)ni quyidagilar haqida tuzdilar.

I. SUG'URTA SHARTNOMASIDAGI ATAMA (SHART)LAR

Sug'urtalovchi – umumiy sug'urta sohasining tegishli klasslari bo'yicha sug'urtani amalga oshirish uchun litsenziyaga ega bo'lgan va sug'urta shartnomasiga muvofiq sug'urta tovonini to'lovini amalga oshirish majburiyatini oluvchi tijorat tashkiloti va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari.

Naf oluvchi (Bank) – sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskunalarining asralishida qonun hujjatlari va sug'urta shartnomasiga asoslangan mulkiy manfaati bo'lgan hamda sug'urta tovonini olishga haqli bank – **“Biznesni rivojlantirish banki” ATB** va uning nomidan faoliyat yurituvchi filiallari (bank xizmatlari ofisi va markazi).

Qarz oluvchi (Qarzdor) – Naf oluvchi bilan kredit shartnomasini tuzgan va mazkur sug'urta shartnomasiga qo'shilgan (Anketa-ariza imzolangan yoki ommaviy ofertani akseptlangan), sug'urta shartnomasida kelishilgan sug'urta mukofotini to'lovchi shaxslar (Naf oluvchining mijozlari).

Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchi – Sug'urta qildiruvchi hisoblanadi.

Garovga qo'yuvchi (agar sug'urtalanayotgan ko'chmas mulk/uskuna Qarz oluvchiniki bo'lmasa) – Qarz oluvchi va Naf oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasiga asosan, kreditning ta'minoti sifatida o'ziga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk/uskunani garovga qo'yuvchi shaxs bo'lib, Garovga qo'yuvchi Anketa-arizani imzolash orqali sug'urta shartnomasi bilan tanishganligini tasdiqlaydi.


Kredit shartnomasi – Naf oluvchi va Qarz oluvchi o'rtasida kredit (mikroqarz, mikrokredit, overdraft va boshqalar) ajratish bo'yicha tuzilgan shartnoma bo'lib, unga ko'ra Naf oluvchi (Bank) kredit shartnomasida nazarda tutilgan miqdorda va shartlarda pul mablag'lari (kredit)ni Qarz oluvchiga taqdim etish, Qarz oluvchi esa kredit va unga hisoblangan foizlar hamda boshqa to'lovlarni kredit shartnomasida belgilangan muddatlarda va miqdorlarda qaytarish majburiyatlarini oladi.

Sug'urta shartnomasi – mazkur sug'urta shartnomasi bo'lib, unga ko'ra Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasida belgilangan haq (sug'urta mukofoti) evaziga sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan voqea (sug'urta hodisasi) sodir bo'lganda Naf oluvchiga sug'urta tovonini to'lash majburiyatini oladi.

Anketa-ariza – Qarz oluvchi va Garovga qo'yuvchilar tomonidan imzolangan, sug'urta shartnomasining barcha shartlari bilan tanishib chiqqanligi, o'z ixtiyori bilan sug'urta shartnomasiga butunlay qo'shilishini hamda mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha huquq va majburiyatlarni qabul qilganligini tasdiqlovchi hujjat. Anketa-ariza sug'urta shartnomasining ajralmas qismi hisoblanadi va 1-ilovasiga muvofiq rasmiylashtiriladi.

Ommaviy oferta – Mazkur sug'urta shartnomasining barcha asosiy shartlarini o'z ichiga olgan, javob qaytargan har qanday shaxs bilan ushbu taklifda ko'rsatilgan shartlar asosida shartnoma tuzishga bo'lgan xohish-irodasi haqidagi Sug'urtalovchining taklifi. Ommaviy oferta mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchining faqatgina o'ziga tegishli bo'lgan ko'chmas mulk va/yoki uskuna (-lar) garovga taqdim etilgandagina qo'llaniladi.

Ommaviy oferta Qarz oluvchi tomonidan Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti, ilovalari va/yoki axborot almashishning boshqa usullaridan foydalangan holda akseptlanadi.



Geografik hudud (sug'urta joyi) – Sug'urta polisi amalda bo'ladigan hudud. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha, agar boshqa shartlar kelishilmagan bo'lsa, geografik hudud bo'lib O'zbekiston Respublikasi hisoblanadi.

Ko'chmas mulk – sug'urta joyida o'rnatilgan, sug'urta polisi va Anketa-arizada tavsiflangan hamda Naf oluvchining ichki me'yoriy hujjatlarida ko'rsatib o'tilgan tartib doirasida garovga olinishi ta'qiqlanmagan har qanday ko'chmas mulklar.

Uskuna – sug'urta joyida o'rnatilgan, sug'urta polisi va Anketa-arizada tavsiflangan uskuna.

Sug'urta qiymati – Sug'urta shartnomasini tuzish paytida tomonlarning kelishuviga ko'ra aniqlanadigan, sug'urta manfaati bilan bog'lanadigan ko'chmas mulk/uskuna qiymati.

Sug'urta summasi – Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Sug'urtalovchining ushbu sug'urta shartnomasi bo'yicha Naf oluvchi oldidagi majburiyatlari hajmining chegarasini o'zida aks ettiruvchi pul mablag'lari miqdori.

Sug'urta tovon – Sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta)da nazarda tutilgan sug'urta hodisasi yuz berganda, Naf oluvchiga yetkazilgan zararni qoplash uchun sug'urta summasi doirasida to'lanadigan pul mablag'i.

Sug'urta mukofoti – Qarz oluvchi yoki qonunchilikda ta'qiqlanmagan shaxslar tomonidan ushbu sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta)da belgilangan tartibda va muddatda Sug'urtalovchiga to'lashi shart bo'lgan sug'urta haqi.

Sug'urta polisi – Sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta) tuzilganligini, Sug'urtalovchining sug'urta tovonini to'lash bo'yicha majburiyatlari kuchga kirganligini tasdiqlovchi hujjat. Sug'urta polislari Sug'urtalovchi tomonidan Qarz oluvchining murojaatiga asosan har bir kredit shartnomasi bo'yicha alohida rasmiylashtirib beriladi.

Sug'urta hodisasi – sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskunaning mazkur sug'urta shartnomasi 6.1-bandida ko'rsatilgan sug'urta hodisalari natijasida shikastlanishi yoki nobud bo'lishi hisoblanadi.

Sug'urta muddati – Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan davrda sodir bo'lgan sug'urta hodisalari bo'yicha majburiyatlarni o'z zimmasiga oladigan davr. Sug'urta muddati har bir kredit shartnomasi bo'yicha alohida va muddatiga mutanosib ravishda belgilanadi.

Franshiza – sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan, Sug'urtalovchi tomonidan qoplanmaydigan Naf oluvchi/Qarz oluvchi zararlarining bir qismi bo'lib, mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha franshiza qo'llanilmaydi.

Subrogatsiya – Naf oluvchining Qarz oluvchiga nisbatan da'vo huquqi Sug'urtalovchi tomonidan Naf oluvchining ko'rgan zarari yuzasidan to'lab berilgan sug'urta tovon (qoplab berilgan mablag') doirasida Sug'urtalovchiga o'tishi.

Fors-major – favqulodda va oldindan ko'rilmagan tavsifda bo'lib, tomonlar majburiyatlarini qabul qilgandan keyin kelib chiqadigan, hamda ularning xohish irodasiga bog'liq bo'lmay, aqliy tadbirlar bilan uning oldini olib bo'lmaydigan holat.

II. SHARTNOMA PREDMETI

2.1. Sug'urta shartnomasining predmeti bo'lib, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 354 (shartnoma tuzish erkinligi) va 360 (Qo'shilish shartnomasi) moddalariga asosan, Qarz oluvchining mazkur sug'urta shartnomasi shartlariga qo'shilishi hisoblanadi.

2.2. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Qarz oluvchi Anketa-arizani imzolash yoki ommaviy ofertani akseptlash orqali sug'urta shartnomasiga qo'shilgan hisoblanadi hamda sug'urta shartnomasining tarafi, ya'ni Qarz oluvchi sifatida ishtirok etadi.

2.3. Qarz oluvchi tomonidan ommaviy ofertani akseptlash quyidagilar hisoblanadi:

- Sug'urta shartnomasi shartlarini boricha va to'liqligicha qabul qilish;
- Mazkur sug'urta shartnomasining 4.1 va 4.2 bandlariga muvofiq sug'urta mukofotini to'lash.

Ommaviy oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367-, 369-, 370-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

2.4. Sug'urta shartnomasida kelishilgan to'lov (sug'urta mukofoti) uchun Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasida keltirilgan hodisa (sug'urta xodisasi) natijasida Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchining garovga qo'yilgan ko'chmas mulki/uskunalariga yetkazilgan zararni sug'urta shartnomasida kelishilgan pul (sug'urta summasi) hajmida Naf oluvchiga qoplash (sug'urta tovonini to'lash) majburiyatini oladi va ushbu sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda Naf oluvchiga uning birinchi talabiga muvofiq sug'urta tovonini to'lab beradi.

2.5. Sug'urta mukofotini to'lanishi, Qarz oluvchining sug'urta shartnomasi va sug'urta polisida belgilangan shartlarda, tartibda va hajmda, mazkur sug'urta shartnomasiga qo'shilishiga so'zsiz va to'liq roziligini (akseptlaganini) bildiradi.

2.6. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchi, sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskuna (-lar)ni Naf oluvchi va Qarz oluvchi o'rtasida tuzilgan kredit shartnomasi bo'yicha kreditning ta'minoti sifatida va kelishuv (ko'chmas mulk/uskunalarni baholash bo'yicha) dalolatnomasi hamda garov shartnomasi bo'yicha Garovga qo'yuvchi tomonidan garovga qo'yilganligi to'g'risida xabardor deb hisoblanadi.

2.7. Mazkur sug'urta shartnomasiga muvofiq, Qarz oluvchi va Naf oluvchi tomonidan Sug'urtalovchiga taqdim etilgan hujjatlar, jumladan ilovadagi ma'lumotlar ushbu sug'urta shartnomasining ajralmas qismi ekanligini, ishonchli va haqiqatga to'g'ri keluvchi ma'lumotlar ekanligini, shuningdek aksept chaqirib olinmaganligini tasdiqlaydilar.

III. SUG'URTA SUMMASI VA JAVOBGARLIK CHEGARASI

3.1. Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta summasi – kredit shartnomasiga asosan garovga taqdim etilayotgan ko'chmas mulk/uskunaning Naf oluvchi, Qarz oluvchi va Garovga qo'yuvchi o'rtasida tuzilgan kelishuv (ko'chmas mulk/uskunani baholash bo'yicha) dalolatnomasidagi qiymatidan kelib chiqib belgilanadi.

3.2. Sug'urta summasi har bir kredit shartnomasi bo'yicha alohida belgilanadi va sug'urta polisida ko'rsatiladi.

IV. SUG'URTA MUKOFOTINI HISOBLASH VA TO'LASH TARTIBI

4.1. Sug'urta mukofoti sug'urta summasidan kelib chiqib, quyidagicha belgilanadi:

- a) Ko'chmas mulklar bo'yicha har bir yil uchun yillik **0,05** foiz;
- b) Uskunalar bo'yicha har bir yil uchun yillik **0,04** foiz.

4.2. Sug'urta mukofoti Qarz oluvchi tomonidan sug'urta shartnomasiga qo'shilish bo'yicha Anketa-ariza imzolangan yoki ommaviy oferta tasdiqlangan kundan boshlab 3 (uch) bank kuni ichida kredit shartnomasining muddatiga mos ravishda to'liq to'lanadi.

4.3. Qarz oluvchi tomonidan sug'urta mukofoti to'lanishi mazkur sug'urta shartnomasi (sug'urta polisi) shartlariga to'liq va so'zsiz qo'shilganligini (akseptlaganini) bildiradi.

4.4. Sug'urtalovchi to'langan sug'urta mukofotini Qarz oluvchining yozma arizasiga ko'ra, Naf oluvchining roziligi bilan (xat yoki onlayn tartibda yuborilgan API so'roviga asosan) 15 (o'n besh) ish kuni ichida quyidagi tartibda Qarz oluvchiga qaytarib beradi:

- Kredit shartnomasi bo'yicha kredit mablag'lari ajratilmasa to'langan sug'urta mukofoti to'liq qaytariladi;

- Qarz oluvchi tomonidan kredit shartnomasi bo'yicha ajratilgan kredit mablag'lari muddatidan avval so'ndirilganda, sug'urta mukofotining mazkur so'ndirilgan muddatgacha (yozma murojat qilingan kungacha) tegishli qismini chegirib tashlagan holda qaytariladi.

V. SUG'URTA POLISINI BERISH TARTIBI

5.1. Sug'urta polisi mazkur sug'urta shartnomasi (ommaviy oferta) bo'yicha, sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda va muddatda Sug'urtalovchining bankdagi hisobraqamiga sug'urta mukofoti (pul mablag'lari) kelib tushgandan so'ng taqdim etiladi.

5.2. Sug'urta polisi (E-polis) Sug'urtalovchining rasmiy veb-sayti, ilovalari va avtomatlashtirilgan axborot tizimlari orqali elektron ravishda taqdim etiladi.

5.3. Mazkur sug'urta shartnomasining amal qilish davrida Sug'urtalovchining sug'urta xizmatini ko'rsatish darajasi Naf oluvchining ichki me'yoriy hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq kelmasa, Naf oluvchi yangi polis qabul qilishni bir tomonlama to'xtatishga haqli.

5.4. Qarz oluvchi tomonidan ommaviy ofertani akseptlash quyidagilar hisoblanadi:

- Sug'urta shartnomasi shartlarini boricha va to'liqligicha qabul qilish;
- Mazkur sug'urta shartnomasining **4.1- va 4.2-**bandlariga muvofiq sug'urta mukofotini to'lash;

Ommaviy oferta va uning shartlari Fuqarolik kodeksining 367-, 369-, 370-moddalariga asosan ishlab chiqilgan.

VI. SUG'URTA HODISASI

A handwritten signature in blue ink is written over a circular official stamp. The stamp contains some illegible text and a date that appears to be '2025'.

6.1. Sug'urtalovchi Naf oluvchi/Qarz oluvchiga sug'urta hodisasi deb tan olingan, garovga taqdim qilingan ko'chmas mulk/uskunaning shikastlanishi yoki nobud bo'lishi, quyida keltirilgan hodisalar natijasida paydo bo'lgan zararlarni qoplaydi:

- a) Yer ko'chishi, yorilishi yoki ustki qatlamining siljishi;
- b) Zilzila;
- c) Portlash va/yoki yong'in;
- d) Sel kelishi, qor yoki tog' jinslarining ko'chishi;
- e) Yashin urishi – bu chaqmoqning ko'chmas mulk/uskunaga bevosita ta'siri hisoblanadi;
- f) Toshqin – bu suv inshootlarini buzilishi yoki daryo, ko'l va dengizlarning suv satxi ko'tarilishi hisobidan katta maydonlarni suv bosishi;
- g) Bo'ron – bu tezligi 1 soniyaga 15 metr tezlikdan kuchliroq bo'lgan shamol va dovul – bu tezligi 1 soniyaga 25 metr tezlikdan kuchliroq bo'lgan shamol;
- h) Do'l deganda do'lni bevosita ko'chmas mulk/uskunaga ta'siri hisoblanadi;
- i) Yer osti suvlarining chiqishi – yer osti suvlar chiqishi hisobiga ko'chmas mulk/uskunaga zarar yetishi;
- j) Tuproqning ko'chishi yoki yemirilishi – bu o'z og'irligi ostida yerni ko'chishi;
- k) Predmet va daraxtlarning yiqilishi oqibatida ko'chmas mulkka zarar yetishi;
- l) Yer usti, suv, temir yo'l, havo transport vositalari yoki jismlarning ko'chmas mulk/uskunaga kelib urilishi va qulashi;
- m) Suv ta'minoti, isitish, kanalizatsiya yoki yong'inni avtomatik ravishda o'chirish tizimlaridagi falokatlar oqibatida ko'chmas mulk/uskunaga zarar yetishi;
- n) Buzib kirib o'g'irlik qilish, bosqinchilik va talonchilik – bu bevosita oyna va eshiklarni buzib kirish va ko'chmas mulk/uskunaga zarar yetkazish;
- o) Uchinchi shaxslarning har qanday noqonuniy harakatlari oqibatida ko'chmas mulk/uskunaga zarar yetishi.

VII. SUG'URTA HODISASIDAN ISTISNOLAR

7.1. Quyidagi sabablar bilan sodir bo'lgan voqealar sug'urta hodisasi deb hisoblanmaydi:

7.2. Agar hodisa quyidagilar natijasida yuz bersa, u sug'urta hodisasi hisoblanmaydi:

- Qarz oluvchi, Garovga qo'yuvchi yoki ularning vakillari sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskunaga nisbatan qasddan qilgan harakatlari;
- ko'chmas mulk/uskunaning o'z-o'zidan yonib ketishi, bijg'ishi, chirishi yoki boshqa tabiiy buzilishi;
- uchinchi shaxslarning qasddan noqonuniy harakatlari natijasida ko'chmas mulk/uskunalarni o'g'irlash, uning yo'q qilinishi yoki shikastlanishi, agar vakolatli organlarga ariza berilmagan bo'lsa, shuningdek, agar ushbu holat vakolatli organlar tomonidan tasdiqlanmasa;
- kuya, parazitlar, termitlar yoki boshqa hasharotlar, yashirin nuqsonlar, tabiiy eskirish, chirish, mog'orlash, atmosfera namligi tufayli zarar yetkazilishi, parchalanishi yoki shikastlanishi;
- Sug'urtalovchi majburiyatlari kuchga kirgan paytiga kelib mavjud bo'lgan va ular haqida Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi yoki uning vakillariga ma'lum bo'lgan ko'chmas mulk/uskunalarning nuqsonlari;
- Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi yoki ularning vakillari tomonidan sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskunalardan foydalanish qoidalarining buzilishi natijasida yetkazilgan zarar;
- doimiy ta'sir etuvchi foydalanish omillari (eskirish, korroziya) ta'sir etishi va ob-havo omillari yoki sug'urtalangan buyumlardan foydalanmaslik oqibatida asta-sekin shikastlanishi;
- ko'chmas mulk/uskunalarning ehtiyot qismlarini tashish;
- loyiha–smeta hujjatlarida ko'zda tutilmagan ishlarning qisman yoki to'liq to'xtatilishi oqibatida yuzaga keladigan zararlari;
- ko'chmas mulk/uskunalarga rasmiy biriktirilmagan shaxslar tomonidan ko'chmas mulk/uskunalardan foydalanish va unga xizmat ko'rsatishda ko'rilgan zararlari;
- yonilg'i-moylash materiallari, kimyoviy moddalar, sovutish suyuqliklari va boshqa yordamchi materiallar yo'qolishi yoki shikastlanishi tufayli ko'rilgan zararlari;
- qurilish texnikasi va transport vositalarining tashqi omillar sabab bo'lmagan ichki buzilishlari natijasida ko'rilgan zararlari;

- loyiha-smeta hujjatlarida ko'zda tutilmagan tajriba yoki tadqiqotchilik ishlari natijasida yetkazilgan zararlar;

- yadro portlashi, radiatsiya yoki radioaktiv zaharlanish ta'sirida ko'rilgan zararlar;

- harbiy harakatlar, manyovrlar yoki boshqa harbiy tadbirlardan ko'rilgan zararlar;

- Sug'urtalovchi sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskunalar davlat organlarining farmoyishi bilan olib qo'yilishi, musodara qilinishi, rekvizitsiya qilinishi, xatlanishi yoki yo'q qilib tashlanishi oqibatida ko'rilgan zarar uchun sug'urta tovonini to'lashdan ozod qilinadi.

7.3. G'ayriqonuniy manfaatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

7.4. Qimor, lotereyalar va garov o'yinlarida ishtirok etishda ko'riladigan zararni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

7.5. Garovga olinganlarni ozod qilish maqsadida shaxs majburan qilishi mumkin bo'lgan xarajatlarni sug'urtalashga yo'l qo'yilmaydi.

7.6. Sug'urtalovchi Naf oluvchi yoki Qarz oluvchiga quyidagi hollarda sug'urta tovonini to'lashga haqli emas:

- sug'urta shartnomasining amal qilishi sug'urta hodisasi yuzaga kelishidan avval, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik Kodeksining 948 va 950-moddalarida ko'rsatilgan asoslar bo'yicha tugagan bo'lsa;

- sug'urta shartnomasi O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida yoki boshqa qonunlarida ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha haqiqiy bo'lmasa;

- Sug'urtalovchi sug'urta shartnomasini O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik Kodeksida yoki boshqa qonunlarida ko'zda tutilgan asoslar bo'yicha haqiqiy emas deb tan olish to'g'risida yoki Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi sug'urta hodisasining holatlarini tergov qilishga yoki yetkazilgan zararining miqdorini aniqlashga to'sqinlik qilganligi oqibatida sug'urta shartnomasini bekor qilish to'g'risida sudga da'vo kiritgan bo'lsa.

7.7. Sug'urtalovchi, agar sug'urta hodisasi Qarz oluvchi yoki Naf oluvchining qasdi oqibatida yuzaga kelgan bo'lsa, sug'urta tovonini to'lashdan ozod etiladi, ular qasddan harakatlarni zaruriy mudofaa yoki oxirgi zarurat holatida sodir etishi bundan mustasno.

7.8. Sug'urta qildiruvchi yoki Naf oluvchi Sug'urtalovchiga shikastlangan buyumlarni yoki ularning qoldiqlarini taqdim etishdan bosh tortganda sug'urta tovonini to'lash amalga oshirilmaydi, sug'urtalangan mulkning qoldiqsiz nobud bo'lishi bundan mustasno.

7.9. Sug'urta tovonini Qarz oluvchi/Naf oluvchi tomonidan sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan ko'chmas mulk/uskunalar kredit ta'minoti sifatida garovga olinmagan bo'lsa yoki mavjud bo'lmaganda to'lanmaydi.

VIII. SUG'URTA TOVONI MIQDORINI ANIQLASH VA TO'LASH TARTIBI

8.1. Qarz oluvchi ushbu sug'urta shartnomasining 6.1-bandida ko'rsatib o'tilgan sug'urta hodisasi yuz bergandan so'ng, bu haqda zudlik bilan maxsus vakolatli organlarga ma'lum qiladi va 10 (o'n) ish kuni ichida har qanday maqbul yo'l bilan (telefon, faks orqali) Sug'urtalovchiga xabar beradi.

8.2. Sug'urta tovonini to'lovi haqidagi arizaga quyidagi hujjatlar ilova qilinadi:

- Sug'urta polisi;

- Baholovchi tashkilotning yetkazilgan zarar miqdori haqida dalolatnomasi (hisoboti);

- Sug'urtalovchining vakillari tomonidan tuzilgan ko'zdan kechirish dalolatnomasi;

- Sug'urta hodisasi tavsiloti ko'rsatilgan dalolatnoma;

- Uchinchi shaxslar zarar o'rnini qoplaganligi to'g'risida ma'lumotnoma (bunday qoplama olingan taqdirda);

- Sug'urta hodisasiga tegishli bo'lgan boshqa hujjatlar (agar mavjud bo'lsa).

8.3. Sug'urta tovonini quyidagicha to'lanadi:

- ko'chmas mulk/uskuna to'la yakson bo'lishida – uning sug'urta shartnomasi tuzilish kuniga bo'lgan sug'urta summasining miqdorida;


- ko'chmas mulk/uskuna qisman shikastlanishida – tiklash xarajatlari miqdorida (sug'urta summasidan oshmagan holda).

Tiklash xarajatlariga quyidagilar kiradi:

- ta'mirlash (qurilish) uchun materiallar va ehtiyot qismlar;

- ta'mirlash bo'yicha ishlarni to'lab berish xarajatlari;

- materiallarni ta'mirlash, joyiga yetkazib berish hamda sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskunani avvalgi holatigacha tiklash uchun boshqa zarur xarajatlar;



- zarar miqdorini aniqlash maqsadida mustaqil tekshiruv o'tkazilishi bilan bog'liq xarajatlar.

Tiklash xarajatlariga quyidagilar kirmaydi:

- sug'urtalangan mulkni yaxshilash uchun qilingan xarajatlar;
- vaqtinchalik yoki qo'shimcha ta'mirlash bilan bog'liq xarajatlar;
- sug'urtalangan uskunani o'zgartirish/takomillashtirish/yangilash bilan bog'liq xarajatlar;
- Pudratchining boshqa xarajatlari;

8.4. Yetkazilgan zarar quyidagi holatlarda qoplanmaydi:

- Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi Sug'urtalovchiga sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskunalar, qaltisliklar, sug'urta hodisasi va uning sabablari to'g'risida oldindan soxta ma'lumotlar bergan bo'lsa;

- Agar Sug'urtalovchiga sug'urta shartnomasi bo'yicha muhim o'zgarishlar to'g'risida, agar bu o'zgarishlar sug'urta xavfi ortishiga jiddiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lsa, 10 (o'n) ichida xabar berilmasa;

- Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi Sug'urtalovchiga sug'urta hodisani o'rganib chiqishda va zararlarining miqdorini aniqlashda to'sqinlik qilsa;

- Mazkur sug'urta shartnomasida belgilangan tartib va muddatlarda Sug'urtalovchiga sug'urta hodisasi sodir etilganligi to'g'risida xabar berilmasa yoki hodisani ko'rib chiqish uchun tegishli hujjatlar taqdim etilmasa;

- Agar Qarz oluvchi (Naf oluvchi) Sug'urtalovchi tomonidan qoplangan zarar uchun javobgar shaxsga nisbatan o'zining talab qilish huquqidan voz kechsa yoki bu huquqni amalga oshirish Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchining aybi bilan mumkin bo'lmagan bo'lsa, Sug'urtalovchi sug'urta tovonini to'liq yoki uning tegishli qismini to'lashdan ozod qilinadi va tovonning ortiqcha to'langan summasini qaytarishni talab qilishga haqlidir;

- O'zbekiston Respublikasining qonunchiligi va mazkur sug'urta shartnomasida nazarda tutilgan boshqa holatlarda.

8.5. Sug'urta hodisasining sabablari va holatlarini ko'rsatuvchi hamda zararining miqdorini aniqlovchi hujjatlarni olgandan so'ng, Sug'urtalovchi sug'urta hodisasini tan olish haqida 10 (o'n) bank kun ichida qaror chiqaradi. Sug'urtalovchi sug'urta hodisasini tan olsa, sug'urta tovonini miqdorini belgilaydi va tegishli sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnomani Naf oluvchiga taqdim etadi. Sug'urta hodisasi to'g'risidagi dalolatnoma tomonlar imzolagandan so'ng 10 (o'n) bank kuni ichida Sug'urtalovchi sug'urta tovonini Naf oluvchiga to'lab beradi.

8.6. Sug'urtalovchining sug'urta tovonini yoki sug'urta summasini to'lashni rad etish to'g'risidagi qarori Naf oluvchiga ular sug'urta tovonini yoki sug'urta summasini to'lashni so'rab murojaat etganlaridan keyin 10 (o'n) kundan kechiktirmay xabar qilinishi va rad etish sabablarining asoslantirilgan dalil-isbotlarini o'z ichiga olgan bo'lishi lozim.


8.7. Sug'urta tovonini to'langanidan so'ng, sug'urta tovonini (qoplab berilgan mablag') doirasida qoplangan zarar uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda Naf oluvchidan da'vo qilish huquqi Sug'urtalovchiga o'tadi.

8.8. Sug'urta shartnomasini barcha shartlarini amalga oshirish bilan bog'liq har qanday xarajatlarni qoplash Qarz oluvchining zimmasiga yuklatiladi.

IX. KORRUPSIYAGA QARSHI SHARTLAR

9.1. Tomonlar ushbu sug'urta shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarayotganda ularning har biri o'z faoliyatida korrupsion harakatlarni to'liq taqiqlash va har qanday shaklda yordam (bevosita yoki bilvosita), shu jumladan pul mablag'lari, qimmatbaho buyumlar, boshqa mol-mulk yoki mulkiy xarakterdagi Xxizmatlar, boshqa mulkiy huquqlarni olish/berish, muayyan masalalarni tezroq hal qilishni ta'minlash, ma'muriy va boshqa tartib-qoidalarni soddalashtirish, raqobat va boshqa afzalliklarni ta'minlashni to'liq rad etadi. Tomonlar o'z faoliyatida amaldagi qonunchilik, shuningdek uning asosida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashishga qaratilgan siyosat va tartib (agar mavjud bo'lsa) talablariga amal qiladilar.

9.2. Tomonlar ushbu shartnoma bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarish chog'ida na o'zlari, na ijroiya organi, na ularning mansabdor shaxslari yoki xodimlari biron-bir shaxslarga (jumladan, jismoniy shaxslar, tijorat tashkilotlari va davlat mansabdor shaxslari) korrupsion to'lovlarni taqdim etishni taklif qilmasligini, taqdim etmasligini, rozilik bermasligini, shuningdek har qanday shaxsdan (to'g'ridan-



to'g'ri yoki bilvosita) har qanday korrupsion to'lovlarni olishga yoki qabul qilishga rozi bo'lmasliklarini kafolatlaydi.

9.3. Mazkur bo'limning biron bir shartlari buzilgan taqdirda, tegishli taraf boshqa tarafni bunday buzilish sodir bo'lgan kundan boshlab 5 (besh) ish kuni ichida yozma ravishda xabardor qilish majburiyatini oladi. Tomonlar yozma xabarnomada ushbu bo'limning qaysi bir qoidalari buzilganligini tasdiqlovchi ishonchli faktlar va materiallarni taqdim qilishi shart.

Yozma xabarnomalar "Biznesni rivojlantirish banki" ATB tomonidan tashkil etilgan jismoniy va yuridik shaxslar uchun korrupsiyaga qarshi kurashish "Komplayens ishonch liniyasi" kanallari (**tel: 78-150-59-95**, veb sayt **www.brb.uz**, Telegram messenjer **@BRB_ANTI KOR_BOT** (email:**antikor@brb.uz**) orqali amalga oshiriladi.

9.4. Ushbu bo'lim shartlari tomonlarning biri buzilganligi bo'yicha fakti tasdiqlanganda va/yoki boshqa Tomonning qoidabuzarliklarni ko'rib chiqish haqida xabarnoma natijalari yuzasidan ma'lumot taqdim qilmagan taqdirda, boshqa taraf shartnomani bir taraflama qisman yoki to'liq bekor qilishga haqli.

Mazkur sug'urta shartnomasini korrupsiyaga qarshi shartlarga asoslanib bekor qilgan taraf, bunday bekor qilish natijasida yetkazilgan haqiqiy zararni talab qilishga haqli. Zararlarni qoplash tomonlarning mas'ul xodimlari tomonidan yozma ravishda tasdiqlangan dalolatnomada belgilangan muddat va miqdorda amalga oshiriladi.

X. SUBROGATSIYA

10.1. Naf oluvchining sug'urta hodisasi natijasida qoplangan zarar uchun Qarz oluvchi(-lar)dan talab qilish huquqi to'langan summa (tovon) doirasida Sug'urtalovchiga o'tadi.

10.2. Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqi uning tomonidan Naf oluvchi va Qarz oluvchi(-lar) o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi hujjatlarga rioya qilgan holda amalga oshiriladi.

10.3. Naf oluvchi, Sug'urtalovchiga o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirishi uchun zarur bo'lgan barcha hujjatlar va ma'lumotlarni unga ma'lum qilishi shart.

10.4. Sug'urtalovchi qarzni undirishni O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga asosan amalga oshiradi.

XI. TOMONLARNING HUQUQ VA MAJBURIYATLARI

11.1. Sug'urtalovchining huquqlari:

- Sug'urta to'voni to'lab berilganidan so'ng, Qarz oluvchidan zararni undirib olish yuzasidan O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan tartibda da'vo qilish huquqini amalga oshirish;

- Sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskunaning holatini monitoring qilish;

- Sug'urta shartnomasining amal qilishi davrida sug'urtalangan ko'chmas mulk/uskunaning holatini va qiymatini, shuningdek Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchi tomonidan ko'chmas mulk/uskuna to'g'risida bildirilgan ma'lumotlarning to'g'riligini tekshirish;

- Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchidan sug'urta hodisasi to'g'risidagi yozma xabarnomani kutmay, sug'urta hodisasi bilan yetkazilgan zararlarni ko'rib chiqishga va baholashga kirishish;

- Sug'urta hodisasi yuzaga kelganligi holatini va sabablarini tasdiqlovchi to'liq ma'lumot va kerakli hujjatlar olinishigacha, shuningdek hodisa yuzaga kelishi holati bo'yicha jinoiy ish qo'zg'atilishi holatida - vakolatli organlar tomonidan tegishli qaror qabul qilinishi paytigacha sug'urta tovonini to'lashni kechiktirish;

- Qarz oluvchidan (-lardan) to'langan pul mablag'larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to'lov tizimi orqali Sug'urta qildiruvchi/Garovga qo'yuvchiga tegishli bo'lgan har qanday hisobraqamidagi pul mablag'larini ularning roziligisiz undirish.

11.2. Sug'urtalovchining majburiyatlari:

- Sug'urta polisini ushbu sug'urta shartnomasida belgilangan muddat va tartibda berish;

- Sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchiga sug'urta tovonini bo'yicha maslahatlar berish;

- Naf oluvchi tomonidan sug'urta shartnomasida ko'rsatib o'tilgan hujjatlarni belgilangan tartibda taqdim qilganidan so'ng, Naf oluvchi bilan sug'urta hodisasi to'g'risida dalolatnoma tuzish va sug'urta tovonini to'lab berish yoki unga sug'urta tovonini to'lashni rad etish to'g'risida, rad etish sabablari ko'rsatilgan xabarnoma yuborish;



- Sug'urta hodisasi sodir bo'lganda Naf oluvchiga ushbu sug'urta shartnomasida belgilangan tartib va miqdorda sug'urta summasi (qoplamasi, tovonini)ni to'lash;

- Qarz oluvchi va Garovga qo'yuvchi to'g'risidagi hamda ko'chmas mulk/uskunaning mulkiy holati to'g'risidagi ma'lumotlarni oshkor qilmasligi, O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari bilan nazarda tutilgan holatlar bundan mustasno.

11.3. Naf oluvchining huquqlari:

- Sug'urtalovchi bilan kelishilgan holda ushbu sug'urta shartnomasiga qo'shimchalar va/yoki o'zgartirishlar kiritish;

- Sug'urta hodisasi yuz berganda, ushbu sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash bo'yicha murojaat qilish;

- Sug'urta polisi bo'yicha Sug'urtalovchidan o'z majburiyatlarini bajarilishini talab qilish;

- Mazkur sug'urta shartnomasining amal qilish davrida Sug'urtalovchining sug'urta xizmatini ko'rsatish darajasi Naf oluvchining ichki me'yoriy hujjatlarida ko'rsatilgan talablarga muvofiq kelmasa, yangi polis qabul qilishni bir tomonlama to'xtatish;

- Sug'urtalovchining veb-saytida e'lon qilingan to'lovga qobiliyatlilik normativlari bo'yicha talablar bajarilmayotganligi aniqlansa, yangi sug'urta polisini qabul qilishni bir tomonlama to'xtatish;

- Mazkur sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan muddat mobaynida sug'urta masalalari yuzasidan bepul maslahatlar olish;

- Ushbu sug'urta shartnomasi amalda bo'lgan muddat mobaynida Sug'urtalovchiga mazkur sug'urta shartnomasini muddatidan oldin bekor qilish haqida murojaat qilish.

11.4. Naf oluvchining majburiyatlari:

Mazkur sug'urta shartnomasining shartlari va tartibiga asosan Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lab berishi bo'yicha murojaat qilish;

- Sug'urta tovonini to'langanligi to'g'risidagi ma'lumotnomani Qarz oluvchi va Sug'urtalovchiga ularning so'roviga ko'ra taqdim etish;

- Sug'urtalovchini kredit shartnomasining uzaytirilishi to'g'risida xabardor etish.

11.5. Qarz oluvchi/Garovga qo'yuvchining huquq va majburiyatlari:

- Mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta mukofoti to'lanishidan oldin sug'urta shartnomasi, Anketa-ariza va/yoki ommaviy oferta shartlari bilan tanishish;

- Sug'urtalovchini sug'urta hodisasi yuzaga kelganligi haqida sug'urta shartnomasida ko'rsatilgan vaqtda (10 kun ichida) yozma/og'zaki xabardor qilish;

- Sug'urta hodisasi yuz berganda, ushbu sug'urta shartnomasida belgilangan tartibda Sug'urtalovchiga sug'urta tovonini to'lash bo'yicha ariza bilan murojaat qilish;

- Sug'urta shartnomasi amal qilishi davrida sug'urta shartnomasi bo'yicha Sug'urtalovchidan maslahatlar olish;

- Mazkur sug'urta shartnomasiga asosan Anketa-arizani imzolagan kundan boshlab yoki ommaviy ofertani tasdiqlagandan so'ng 3 (uch) bank kuni ichida sug'urta mukofotini to'liq to'lab berish;

- Sug'urtalovchi o'zi to'lagan pul mablag'larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to'lov tizimi orqali Qarz oluvchiga tegishli bo'lgan hisobvarag'laridan ularning roziligisiz pul mablag'larini undirishga, Qarz oluvchi ommaviy ofertani akseptlashi yoki Anketa-arizani imzolashi bilan o'z roziligini bildirganligini anglatadi;

- Sug'urtalovchining so'roviga ko'ra, mazkur sug'urta shartnomasi bo'yicha sug'urta hodisasi sodir bo'lganligi va tafsilotlarini aniqlash uchun zarur ma'lumotlar yoki axborotlarni taqdim etish;

- Sug'urtalovchiga subrogatsiya va regress tartibida o'tgan talab qilish huquqini amalga oshirish uchun zarur barcha hujjatlar va dalillarni taqdim etish hamda barcha ma'lumotlardan Sug'urtalovchini xabardor qilish.

XII. NIZOLARNI HAL ETISH TARTIBI

12.1. Tomonlar ushbu sug'urta shartnomasi yuzasidan kelib chiqishi mumkin bo'lgan kelishmovchilik va nizolarni o'zaro muzokaralar yo'li bilan hal qilishga harakat qiladilar.

12.2. Sug'urta shartnomasi bo'yicha taraflar o'rtasida kelib chiqqan kelishmovchilik va nizolarni muzokaralar yo'li bilan hal etishni imkoni bo'lmasa, nizolar tegishli sudlar tomonidan amaldagi qonun hujjatlarida belgilangan tartibda ko'rib chiqiladi



XIII. SHARTNOMANING AMAL QILISH MUDDATI VA BEKOR BO‘LISH TARTIBI

13.1. Ushbu sug‘urta shartnomasi tomonlar imzolagan paytdan boshlab kuchga kiradi va tomonlar mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha o‘z zimmlariga olgan barcha majburiyatlari to‘liq bajarilgunga qadar amalda bo‘ladi.

13.2. Ushbu sug‘urta shartnomasi bilan kelishilgan shartlar mazkur sug‘urta shartnomasi kuchga kirgandan keyin sodir bo‘lgan sug‘urta hodisalariga nisbatan qo‘llaniladi.

13.3. Mazkur sug‘urta shartnomasi quyidagi holatlarda bekor bo‘ladi:

- Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasi bo‘yicha Naf oluvchi oldidagi majburiyatlarni to‘liq hajmda bajarilgan taqdirda;
- Sug‘urtalovchi tomonidan mazkur sug‘urta shartnomasi va Naf oluvchi bilan avval tuzilgan boshqa sug‘urta shartnomalari bo‘yicha Naf oluvchi oldidagi sug‘urta tovonini to‘lash bilan bog‘liq majburiyatlari belgilangan muddatdan 1 (bir) oyga kechiktirilsa;
- Tomonlarning kelishuviga muvofiq ushbu sug‘urta shartnomasiga qo‘shimcha kelishuv tuzish orqali;
- Sud tartibida;
- O‘zbekiston Respublikasining qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan boshqa holatlarda.

XIV. TOMONLARNING YURIDIK MANZILLARI VA REKVIZITLARI

“Sug‘urtalovchi” “MY- INSURANCE” Sug‘urta Kompaniyasi AJ Manzil: Toshkent shahar Mirobod tumani kichik Mirobod ko‘chasi, 95-uy. H/r: 20208000104786066003 “Biznesni rivojlantirish banki” ATB MFO: 01037, STIR: 207002342, XTTUT:96220 Tel.: 71-205-19-19 Bosh direktor A.K.Yuldashev 	“Sug‘urta qildiruvchi/Naf oluvchi” “Biznesni rivojlantirish banki” ATB Manzil: Toshkent shahar, A.Navoiy ko‘chasi, 18-A uy. H/r: _____ “Biznesni rivojlantirish banki” ATB MFO: 01037, STIR: 206 916 313, OKED: 64190, tel.: 78-150-93-39 Boshqaruv raisi o‘rinbosari v.b. O.R.Voxidov _____ (imzo) 
---	--



topust:





“MY- INSURANCE” Sug’urta Kompaniyasi AJ
va “Biznesni rivojlantirish banki” ATB o’rtasida
2025-yil _____ da tuzilgan
Bosh kelishuv shartnomasiga
1-ilova

“MY- INSURANCE” Sug’urta Kompaniyasi
Bosh direktori A.K.Yuldashevga

Qarz oluvchi _____ dan

ANKETA-ARIZA

Ushbu Anketa-ariza bilan, Sizdan quyidagi ma’lumotlar asosida sug’urta shartnomasini/polisini tuzishingizni so’rayman.

1	Sug’urta mahsulotining nomi:	
2	Sug’urtalovchi:	
3	Qarz oluvchi/Sug’urta qildiruvchi:	
4	Sug’urtalangan shaxs:	
5	Naf oluvchi:	
6	Sug’urta obyekti:	
7	Sug’urta shakli:	
8	Sug’urta klassi:	
9	Sug’urta tavakkalchiliklari:	
10	Sug’urta qiymati:	
11	Sug’urta summasi:	
12	Sug’urta mukofoti:	
13	Franshiza:	
14	Sug’urta polisining amal qilish muddati:	
15	Sug’urta himoyasiga olingan hudud:	
16	Sug’urta qoidalari:	
17	Sug’urta tashkilotining manzili:	
18	Alohida qaydlar	
19	Sug’urta shartnomasining quyidagi muhim shartlari bilan tanishdim hamda o’z roziligimni bildiraman:	Qarz oluvchi tomonidan mazkur anketa-ariza imzolangan va sug’urta mukofoti to’langan vaqtdan boshlab Sug’urtalovchi, Naf oluvchi va Qarz oluvchi o’rtasida sug’urta shartnomasi tuzilgan deb hisoblanadi. Qarz oluvchi sug’urta shartnomasining barcha shartlarini istisno qilmasdan so’zsiz qabul qilganligini anglatadi. Sug’urta hodisasi bo’yicha zarar qoplangandan keyin, Sug’urtalovchi Qarz oluvchidan ushbu pul mablag’larini subrogatsiya (regress) tartibida undirish jarayonida avtomatlashtirilgan to’lov tizimi orqali Qarz oluvchiga tegishli bo’lgan har qanday turdagi hisobvarag’laridan uning roziligisiz pul mablag’larini undirishga mazkur anketa-arizani imzolashi bilan o’z roziligini bildirganligini anglatadi.

Qarz oluvchi _____

(imzo)

Sana: 20__ y. _____

Garovga qo’yuvchi _____

(imzo)

Sana: 20__ y. _____